MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASINING MADANIY-GUMANITAR ASOSLARI (TURKIYA TAHLILIY QARASHLARI PRIZMASIDA)

Marjona Otaboyeva

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,

“Xalqaro munosabatlar” kafedrasi 1-kurs magistranti

***Ilmiy rahbar: F.Qo’ysinova,** siyosiy fanlar doktori, dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan integratsion jarayonlar madaniy-gumanitar omillar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston tashabbuslari fonida shakllanayotgan yangi mintaqaviy integratsiya siyosati fonida Turkiya omilining sivilizatsiyaviy va strategik ta’sirini aniqlashdan iborat. Xususan, 2026-yil Buxoro sammiti misolida diplomatik uchrashuvlarning “joy diplomatiyasi” (venue diplomacy) integratsiyaning sivilizatsiyaviy bosqichga o‘tganligini ko‘rsatuvchi asosiy omil sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, Turkiya mintaqada “smart power” vositalari orqali integratsiyani chuqurlashtiruvchi katalizator sifatida baholandi.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, integratsiya, madaniy diplomatiya, O‘zbekiston, Turkiya, TDT, smart power, konstruktivizm, liberalizm, Buxoro sammiti, mintaqaviy hamkorlik, venue diplomacy, gumanitar diplomatiya, drayver, pragmatik siyosat, transformatsiya, normativ yaqinlik.*

Abstract. This article examines the integration processes in the Central Asian region through the prism of cultural and humanitarian factors. The primary objective is to determine the role and influence of the Turkey factor in regional rapprochement,

unfolding against the backdrop of Uzbekistan’s initiatives. In particular, the 2026 Bukhara Summit is analyzed as a key factor demonstrating the transition of integration to a civilizational stage through the phenomenon of "venue diplomacy." As a result of the study, Turkey is evaluated as a catalyst deepening regional integration through "smart power" instruments.

Keywords: *Central Asia, integration, cultural diplomacy, Uzbekistan, Türkiye, Organization of Turkic States (OTS), smart power, constructivism, liberalism, Bukhara Summit, regional cooperation, venue diplomacy, humanitarian diplomacy, driver, pragmatic policy, transformation, normative proximity.*

Kirish

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya jarayonlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Uzoq vaqt davomida siyosiy masofalanish va cheklangan hamkorlik bilan tavsiflangan mintaqa bugungi kunda o‘zaro ishonch, ochiqlik va pragmatik yaqinlashuv asosida rivojlanmoqda. Ushbu transformatsiyaning asosiy drayveri sifatida O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan ochiq va konstruktiv tashqi siyosat alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ishonch va yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlash mintaqa barqaror rivojlanishining asosiy shartidir” [8].

Xususan, 2017-yildan boshlab O‘zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari qayta yo‘lga qo‘yildi. Ushbu platforma mintaqaviy muloqotning institutsional asosini yaratib, o‘zaro ishonchni tiklash va strategik masalalarni muvofiqlashtirishda muhim mexanizmga aylandi. Keyingi bosqichda esa ikki va ko‘p tomonlama tashriflar orqali ushbu jarayon amaliy mazmun

kasb eta boshladi. Natijada, iqtisodiy, transport va gumanitar sohalarda hamkorlik sezilarli darajada faollashdi.

Shu bilan birga, integratsiya jarayonlarini faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan izohlash yetarli emas. Konstruktivistik yondashuv vakili Aleksandr Wendt ta’kidlaganidek, xalqaro tizim davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro ta’sir va umumiy identitet asosida shakllanadi [9]. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari umumiy tarixiy xotira, madaniy yaqinlik va “biz” tushunchasining qayta tiklanishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur jarayonni faqat ichki omillar bilan izohlash yetarli emas. Bu yerda madaniy jihatdan yaqin bo‘lgan tashqi aktor – Turkiyaning roli alohida e’tiborga loyiq. Turkiya Markaziy Osiyoni nafaqat geosiyosiy hudud, balki umumiy tarix, til va sivilizatsiyaviy meros bilan bog‘langan makon sifatida qabul qiladi. Shu sababli mintaqadagi integratsiya jarayonlari turk tahlilchilari tomonidan sivilizatsiyaviy uyg‘onish sifatida talqin etilmoqda [8].

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning asosiy maqsadi Markaziy Osiyoda kechayotgan integratsiya jarayonlarini madaniy-gumanitar omillar nuqtai nazaridan tahlil qilish hamda Turkiya omilining ushbu jarayonga ta’sirini liberal va konstruktivistik yondashuvlar sintezi asosida ochib berishdan iborat.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlarida Turkiya omimlining rolini aniqlash maqsadidda tizimli va instrumental yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi quyidagi uslublar majmuasidan iborat:

Tizimli yondashuv (Systemic Approach). Markaziy Osiyo integratsiyasi va Turkiyaning mintaqaviy siyosati o’zaro bog`liq elementlardan iborat yaxlit tizim

sifatida talqin qilindi. Bu yondashuv tashqi aktorlarning (Turkiya) ichki integratsion dinamikaga ta’sirini tushunishga xizmat qildi.

Siyosiy-qiyosiy tahlil (Comparative Political Analysis). O’zbekistoning yangi mintaqaviy strategiyasi va Turkiyaning “Osiyoga qaytish” (Yeniden Asya) tashabbuslari o’zaro qiyslandi. Shuningdek, Turkiyaning mintaqadagi faoliyati boshqa xalqaro formatlar (masalan, C5+1) bilan solishtirilib, uning sivilizatsiyaviy ustunliklari aniqlandi.

Event-tahlil (Event Analysis). 2026-yilgi Buxoro sammiti va undan oldingi diplomatik uchrashuvlar “burilish nuqtalari” sifatida o’rganildi. Ushbu metod orqali diplomatik uchrashuvlarning joyoga bog`liqligi (venue diplomacy) va uning siyosiy deklaratsilar mazmuniga ta’siri baholandi.

Content-tahlil (Content Analysis). O‘zbekiston va Turkiya rahbarlarining rasmiy nutqlari, Turkiy Davlatlar Tashkilotining (TDT) "Turkiy dunyo nigohi – 2040" strategik hujjati va qo‘shma kommyunikelar tahlil qilindi. Bunda "integratsiya", "madaniy birlik", "strategik sheriklik" kabi kalit tushunchalarning qo‘llanilish dinamikasi o‘rganildi.

Konstruktivistik yondashuv. Integratsiya jarayonlari faqat moddiy manfaatlar emas, balki g‘oyalar, normalar va identitet (o‘zlik) asosida shakllanishi tahlil qilindi. Bu metod Turkiyaning "yumshoq kuch" (soft power) va "aqlli kuch" (smart power) vositalarining samaradorligini tushuntirish uchun qo‘llanildi.

Natijalar

O’tkazilgan tizimli tahlil tahlililiy metodlar natijasida Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlari bo’yicha quyidgi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, O‘zbekiston mintaqaviy integratsiyaning asosiy tashabbuskori va drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. 2017-yildan boshlab olib borilgan ochiq tashqi siyosat natijasida mintaqada nafaqat iqtisodiy pragmatizmni balki, “siyosiy ishonch arxitekturasi”ni yaratdi. Bu jarayon mintaqaviy muloqot mexanizmlarining institutsionallashuviga zamin yaratdi [8].

Ikkinchidan, 2026-yil aprel oyida Qozog‘iston va Tojikiston prezidentlarining O‘zbekistonga tashriflari integratsiyaning miqdoriy ko’rsatkichdan sifat bosqichiga o‘tganini ko‘rsatdi. Ushbu tashriflar davomida imzolangan strategik hujjatlar siyosiy-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish bilan bir qatorda mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda va umumiy geosiyosiy mas’uliyatni ham qamrab olmoqda [6].

Uchinchidan, tadqiqotda aniqlangan eng muhim jihat-mazkur hujjatlarning aynan Buxoro shahrida imzolanishi bo’ldi. Bu holat zamonaviy diplomatiyadagi “joy diplomatiyasi” (venue diplomacy) fenomenining klassik namunasidir.Buxoro kabi sivilizatsiyaviy markazning tanlanishi integratsiyaning ramziy va sivilizatsiyaviy o‘lchamlarini kuchaytirdi. Bu holat mintaqada “normativ yaqinlik” jarayonining shakllanayotganini anglatadi.

To‘rtinchidan, Turkiyaning mintaqadagi madaniy-gumanitar yo‘nalishida faolligi “aqlli kuch” (smart power) konsepsiyasi doirasida tahlil qilindi. Turkiya madaniy-gumanitar loyihalar, ta’lim almashinuvlari, TDTdoirasidagi tashabbuslar orqali integratsiya jarayonlarining “gumanitar fundamenti”ni mustahkamlovchi katalizator bo’lib xizmat qilmoqda. Bu esa integratsiyning faqat elitalar darajasida emas, balki jamiyatlar darajasida chuqurlashishini ta’minlaydi. Aynan, ta’lim almashinuvlari, madaniy loyihalar va gumanitar tashabbuslar orqali umumiy makon shakllanishiga

hissa qoʻshilmoqda [5].

Beshinchidan, turk tahlilchilarining qarashlari kontent-tahlil qilinganda, ular Markaziy Osiyodagi jarayonlarni shunchaki geosiyosiy oʼzgarish emas, balki “sivilizatsiyaviy renessans” sifatida baholashi aniqlandi. Bu yondashuv integratsiyani umumiy tarixiy xotiraning qayta tiklanishi (Constructivist approach) bilan uzviy bogʻlaydi [5].

Mazkur jarayonlar Abduvoitov va Sadibaqosiyev tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlarni boyitgan holda, mintaqaviy integratsiyaning madaniy-gumanitar asoslari kuchayib borayotganini koʻrsatadi va siyosiy-iqtisodiy barqarorligini taʼminlovchi “yumshoq kafolat” ekanligini tasdiqlaydi. [1].

Natijada, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar yoʻnalishlarning oʻzaro uygʻunligi asosida rivojlanayotganligi aniqlanadi.

Muhokama

1. Integratsiyaning nazariy-metodologik paradigmasi

Markaziy Osiyoda integratsion dinamika jarayonlari soʻnggi 2017-2026-yillarda murakkab va koʻp qatlamli (multi-level) xarakter kasb etdi. Ushbu jarayon faqat siyosiy yoki iqtisodiy hamkorlik bilan cheklanib qolmay, balki madaniy-gumanitar omillar bilan ham uzviy bogʻliq holda rivojlanmoqda. Shu bois, mazkur jarayonni chuqurroq anglash uchun uni nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilish zarur hisoblanadi. D. Sayfullayev taʼkidlaganidek, zamonaviy mintaqaviy integratsiya jarayonlarining barqarorligi faqat siyosiy kelishuvlar yoki iqtisodiy manfaatlar bilan belgilanmaydi, balki “xalqlar oʻrtasidagi ijtimoiy yaqinlik, umumiy tarixiy xotira va

identitet” poydevoriga qurilmoqda [5].

Ushbu jarayonlarni Konstruktivistik yondashuv prizmasiga koʻra tahlil qilsak, mintaqaviy integratsiya jarayonlari shunchaki resurslar almashinuvi emas, balki umumiy identitet, tarixiy xotira va ijtimoiy konstruksiyalar asosida qayta faollashuvdir[9]. Markaziy Osiyo mintaqasida aynan ushbu omillar soʻnggi yillarda qayta jonlanib, davlatlar oʻrtasidagi yaqinlashuv jarayonlarining muhim ijtimoiy-madaniy asosiga aylanganini kuzatish mumkin. Bu holat esa Markaziy Osiyoda integratsiyaning nafaqat siyosiy-iqtisodiy, balki “sivilizatsiyaviy renessans” bosqichiga oʼtganidan dalolat beradi.

2. Uch darajali integratsiya modeli:

Mintaqaviy yaqinlashuv jarayoni uchta strategik darajada institutsionallashmoqda:

Sivilizatsiyaviy-madaniy daraja:

Baxshichilik festivallari va madaniy forumlar shunchaki tadbir emas, balki “normativ yaqinlik”ni shakklantiruvchi vositalardir. Bu daraja mintaqa xalqlari oʼrtasidagi “biz” (in-group) tuyg`usini mustahkamlab, tashqi geosiyosiy bosimlarga nisbatan madaniy immunitetnii shakllantiradi. Nega aynan baxshichilik festivallari deb savol qoʼyadigan boʻlsak, aynan baxshichilik tarixiy merosni tiklash orqali umumiy identitetni mustahkamlashga xizmat qilishini alohida taʼkidlash zarur. Zero mintaqadagi barcha davlatlarning tarixiy dostonlarining negizi birdir.

Gumanitar-birdamlik daraja:

Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya amaliy hamkorlik shaklida namoyon boʻlib, oʻzaro yordam va birdamlik orqali ishonch muhitini kuchaytiradi. Jumladan,

2023-yil Turkiyada yuz bergan tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishda O‘zbekistonnig faolligi integratsiyaning “axloqiy o’lchami”ni ko’rsatdi. di. Shuningdek Afg‘onistonga yo‘naltirilgan gumanitar tashabbuslar mintaqada “biz” tushunchasining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Bu “gumanitar diplomatiya” strategiyasi mintaqada o’zaro ishonchning (trust-building) yuqori darajasini ta’minladi [8].

Siyosiy-integratorlik daraja:

O‘zbekistonning integrator sifatidagi roli ushbu jarayonlarni siyosiy darajada muvofiqlashtirishda namoyon bo‘lmoqda. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan yangi tashqi siyosiy doktrinasi bo’lmish “ochiq va pragmatik tashqi siyosat konsepsiyasi” mintaqada o‘zaro ishonchni tiklashga xizmat qildi va mintaqada O’zbekiston “integratsion markaz” vazifasini o’tamoqda [8]. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiyalar orqali shaklanayotgan umumiy axborot makoni bilan qo’llab-quvvatlanmoqda. Natijada mintaqa xalqlari o‘rtasidagi ijtimoiy yaqinlik kuchayishi Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida muntazam muloqot va hamkorlik mexanizmlari shakllantirildi.

3.“Joy diplomatiyasi (Venue Diplomacy) va Buxoro fenomeni

Yuqorida ko’rib chiqqanimiz mazkur uch darajali integratsiya modelining eng yorqin ifodasi sifatida 2026-yil Buxoro sammitini ko‘rsatish mumkin. Ushbu sammit shunchaki uchrashuv nuqtasi emas, balki integratsiyaning “markaziy tuguni” ga aylandi. Xalqaro munosabatlar nazariyasidagi “Venue diplomacy” konsepsiyasi doirasida Buxoroning tanlanishi rasmiy diplomatiyani sivilizatsiyaviy identitet darajasiga olib chiqdi. Buxoro bu yerda nafaqat shahar, balki mintaqaviy birlashishning “ramziy kapitali” sifatida namoyon bo’ldi.

Buxoro sammiti nafaqat siyosiy kelishuvlar maydoni, balki madaniy xotira, gumanitar yaqinlik va strategik manfaatlarning kesishgan nuqtadir. Shu jihatdan u Markaziy Osiyoda integratsiyaning kompleks modelini ifodalovchi markaziy “integratsion tugun” vazifasini bajaradi.

4. Turkiya omili: “Smart power” va katalizatorlik roli

Turkiyaning mintaqadagi roli J.Nye tomonidan ilgari surilgan “Smart Power” (Aqlli Kuch) konsepsiyasi bilan to’liq mos keladi [4]. Turkiya mintaqada”yaratuvchi” emas balki mavjud integratsion tendensioyalarni tezlashtiruvchi katalizator vazifasini bajarmoqda.

Turk tahlilchilarining yondashuvlari ushbu rolni uchta tahliliy proeksiyada ochib beradi:

1.Tajriba transferi (Y. Yıldırım) O‘zbekistondagi islohotlarni Turkiyaning 70 yillik iqtisodiy transformatsiya tajribasi bilan bog‘lab, iqtisodiy va instutsional transformatsiyani integratsiya poydevori sifatidda ko’radi uni “tajriba transferi” modeli sifatida baholaydi [10].

2.Geosiyosiy barqarorlik (M. H. Jaşın): Integratsiyani geosiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilib, Markaziy Osiyoni mintaqaviy xavfsizlik va muvozanat tizimining muhim elementi sifatida ko‘radi. Uning yondashuvi realistik elementlar bilan boyitilgan konstruktivizmga yaqin bo‘lib, integratsiyani strategik barqarorlik vositasi sifatida talqin qiladi [2].

3. Sivilizatsiyaviy paradigma (S. Tavukçu): Yaqinlashuv jarayonlarini sivilizatsiyaviy-renessans paradigmasi asosida tushuntiradi. Unga ko‘ra, Markaziy Osiyo va Turkiya o‘rtasidagi yaqinlashuv umumiy tarixiy va madaniy ildizlarning

qayta tiklanishidir [8].

Mazkur yondashuvlar shuni koʻrsatadiki, Turkiya Markaziy Osiyoda integratsiyani “yaratuvchi” emas, balki uni tezlashtiruvchi va chuqurlashtiruvchi katalizator sifatida namoyon boʻladi.

Shu bilan birga, Turkiyaning mintaqadagi roli “smart power” konsepsiyasi orqali izohlanishi mumkin. J. Nye taʼkidlaganidek, zamonaviy xalqaro munosabatlarda davlatlar yumshoq va qattiq kuch elementlarini uygʻunlashtirgan holda taʼsir koʻrsatadi [4]. Turkiya aynan madaniy diplomatiya, taʼlim almashinuvi va institutsional hamkorlik orqali mintaqada oʻz taʼsirini kuchaytirmoqda.

Turkiy davlatlar tashkilotining “Vision 2040” strategiyasi ham ushbu jarayonni institutsional jihatdan mustahkamlovchi omil hisoblanadi [7]. Ushbu hujjat integratsiyaning iqtisodiy emas, balki madaniy va gumanitar asoslarini ham rivojlantirishni koʻzda tutadi.

“Yangi Oʼzbekiston” va “Turkiya asri” hamohangligi

Abduvoitov va Sadibaqosiyev (2026) taʼkidlaganidek, “Yangi Oʻzbekiston” va “Turkiya asri” strategiyalari oʻzaro moslashuvchi rivojlanish yoʻnalishlari sifatida Turkiy dunyo integratsiyasini “Vision2040” doirasida yangi bosqichga olib chiqdi va faol tarzda jadallashtirmoqda[1].

Natijada, Markaziy Osiyoda integratsiya ikki asosiy yoʻnalishda rivojlanmoqda: siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar. Aynan ushbu ikki yoʻnalishning uygʻunligi mintaqada barqaror va uzoq muddatli integratsion modelni shakllantirmoqda. Integratsiyaning siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar qirralari oʼzaro uyg`unlashib, mintaqada barqaror, uzoq muddatli va “kafolatlangan” integratsion modelni

shakllantirmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining kelgusi rivoji boʻyicha quyidagi prognozlar ilgari suriladi:

“Buxoro modeli” kengayadi – tarixiy va madaniy markazlarda oʻtkaziladigan sammitlar mintaqaviy diplomatiyaning yangi shakliga aylanadi.

TDT doirasida madaniy makon shakllanadi – til, ta’lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlik kuchayadi.

Vizasiz harakat rejimi kengayadi – mintaqa davlatlari oʻrtasida aholi harakatchanligi oshadi.

Oʻzbekiston integrator sifatida mustahkamlanadi – mintaqaviy tashabbuslarda yetakchi rol saqlanib qoladi.

Turkiyaning “smart power” siyosati faollashadi – madaniy diplomatiya va gumanitar tashabbuslar orqali ta’sir kuchayadi.

Madaniy-gumanitar integratsiya asosiy trendga aylanadi – identitet va umumiy tarixiy xotira integratsiyaning asosiy drayveriga aylanadi.

Xulosa

Markaziy Osiyo integratsiyasi yangi bosqichga oʻtmoqda. Oʻzbekistonning tashabbuskor siyosati bu jarayonning asosiy drayveri hisoblanadi. Turkiya esa madaniy-gumanitar omillar orqali integratsiyani chuqurlashtiruvchi aktor sifatida namoyon boʻlmoqda.

Integratsiya faqat siyosiy yoki iqtisodiy jarayon emas, balki madaniy va identitet

asosidagi kompleks fenomen hisoblanadi. TDT 2040 strategiyasi ushbu jarayonni institutsional jihatdan mustahkamlab bormoqda.

Natijada, Markaziy Osiyoda barqaror va uzoq muddatli integratsion model shakllanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvoitov S.H., Sadibaqosev H.Sh. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Turkiyaning o‘rni. – Toshkent: 2026.

2. Jaşın M.H. Türkiye’nin Orta Asya Politikası. – Ankara: 2020.

3. Mirziyoyev Sh.M. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvidagi nutqi. – 2018.

4. Nye J. The Future of Power. 2011.

5. Sayfullayev D. Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari: siyosiy va ijtimoiy omillar. – Toshkent: 2023.

6. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti. – URL: https://mfa.uz (murojaat qilingan sana: 2026-yil aprel).

7. Turkic States Organization. Vision 2040. – Baku, 2021.

8. Tavukçu S. Yükselen Özbekistan-Türkiye ilişkileri. SDE.org.tr. https://www.sde.org.tr/sinan-tavukcu/genel/yukselen-ozbekistan-turkiye-iliskileri-kose-yazisi-62725

9. Wendt A. Social Theory of International Politics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

10. Yıldırım Y. Türkiye–Özbekistan İlişkileri. Istanbul, 2022.